# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

TDIU
1931
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay’ati:**

**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ... 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant
Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ... 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent
Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ... 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ... 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi
Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ... 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ... 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant
Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ... 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ... 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ... 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ... 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ... 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ... 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ... 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**
Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ... 73
**Usmonov Botir,** magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ... 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ... 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ... 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ... 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ... 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi
Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ... 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi
Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ... 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ... 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ..... 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ..... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ..... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ..... 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ..... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ..... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ..... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ..... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ..... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ..... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ..... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ..... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ..... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ..... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ..... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ..... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ..... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ..... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ..... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

**Mamirjon Jalollidinov**
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida vazirlik va idoralarda ichki auditni tashkil etishning maqsadi, xususiyatlari, mavjud muammolari, huquqiy asoslari o‘rganilgan. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra vazirlik va idoralarda ichki auditni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat sektori, ichki audit, ichki audit xizmati, moliyaviy hisobot, byudjet hisobi.

Abstract: The article examines the purpose, features, existing problems, legal basis for organizing internal audit in ministries and departments of the Republic of Uzbekistan. Based on the results of the analysis, a scientific conclusion and practical proposals for improving the internal audit of ministries and departments were given.

Key words: public sector, internal audit, internal audit service, financial reporting, budget accounting.

Аннотация: В статье изучены цель, особенности, существующие проблемы, правовые основы организации внутреннего аудита в министерствах и ведомствах Республики Узбекистан. По результатам анализа даны научное заключение и практические предложения по совершенствованию внутреннего аудита министерств и ведомств.

Ключевые слова: государственный сектор, внутренний аудит, служба внутреннего аудита, финансовая отчетность, бюджетный учет.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi PQ–506-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “byudjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash”[1] ko‘rsatilgan.

Olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda, davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga (IPSAS) uyg‘unlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, byudjet hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirish, ya’ni byudjet hisobi va hisoboti tizimi orqali boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilish, davlat sektori aktivlari, majburiyatlari, sof aktivlar, moliyaviy natijalar va pul oqimlari to‘g‘risidagi aniq va ishonchli ma’lumotlarini olish hisoblanadi.

Shu bilan birga “byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo‘ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadida”[2] vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari tashkil etildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Vazirlik va idoralarda ichki audit tuzilmalari tashkil etilgunga qadar davlat moliyaviy nazorat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari hamda boshqa vakolatli organlar) tomonidan vazirlik va idoralarda moliyaviy nazorat tadbirlari amalga oshirilgan

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3231-sonli qarori.

bo‘lib, moliyaviy nazorat tadbirlari “davlat moliyaviy nazorati obyektlarida byudjet to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi holatlarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, byudjet sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida”[3] amalga oshirilgan.

2017-yildan boshlab davlat moliyaviy nazorati tizimida islohotlar amalga oshirilishi boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3231-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tarzida tashkil etildi. Ichki audit xizmatlari 3 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan respublika darajasida hamda 1 – 4 shtat birligidan iborat hududiy darajada tashkil etildi.

Ichki audit xizmatlarining birinchi navbatda aynan ushbu vazirlik va idoralarda tashkil etilishini, ularga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larning salmoqli qismining to‘g‘ri kelishi hamda ijtimoiy yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olishi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, ushbu vazirlik va idoralar qariyb 20 mingga yaqin byudjet tashkilotini qamrab oladi hamda ularda 1,4 milliondan ortiq xodimlar faoliyat yuritadi (1-jadval.)

1-jadval: Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Maktabgacha ta’lim vazirligining tizim tashkilotlari, xodimlari soni va davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida ma’lumot (2022-yil holatiga)[4]

| № | Vazirlik va idora nomi | Tizimdagi tashkilotlar soni | Ishlovchi xodimlar soni | Davlat byudjeti ijrosi(trln. so‘m) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xalq ta’limi vazirligi | 10596 | 746 363 | 27,9 |
| 2 | Sog‘liqni saqlash vazirligi | 1212 | 468 622 | 5,6 |
| 3 | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi | 562 | 85 277 | 3,9 |
| 4 | Maktabgacha ta’lim vazirligi | 6801 | 197 052 | 4,7 |
|  | Jami | 19 171 | 1 497 314 | 42,1 |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu vazirliklar tomonidan byudjet mablag‘larining sarflanishi 42,1 trln. so‘mni tashkil etib, bu umumiy davlat byudjeti xarajatlarining qariyb 30 foizini tashkil etadi.

Shu bilan birga byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzilish holatlari, moliyaviy xato va kamchiliklar ushbu vazirliklarda boshqa vazirlik va idoralarga nisbatan sezilarli darajada farq qiladi. (2-jadval)

2-jadval: Vazirliklarning ichki audit xizmatlari tomonidan 2022-yilda aniqlangan xato va kamchiliklar to‘g‘risida ma’lumot[5]

| № | Vazirlik nomi | Ichki audit tadbirlari o‘tkazilgan obyektlar soni | Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar summasi (mln. so‘mda ) |
|---|---|---|---|
| 1 | Xalq ta’limi vazirligi | 662 | 87 364,4 |
| 2 | Maktabgacha ta’lim vazirligi | 1160 | 45 100,0 |
| 3 | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi | 200 | 16 056,2 |
| 4 | Sog‘liqni saqlash vazirligi | 320 | 26 490,0 |
| 5 | Madaniyat vazirligi | 14 | 4 665,9 |
| 6 | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi | 145 | 1 251,6 |
| 7 | Qishloq xo‘jaligi vazirligi | 103 | 21 260,0 |
| 8 | Qurilish vazirligi | 7 | 143,6 |
| 9 | Sportni rivojlantirish vazirligi | 421 | 2 958,1 |
| 10 | Innovatsion rivojlanish vazirligi | 6 | 13,1 |
| 11 | Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi | 9 | 22 924,9 |
| 12 | Suv xo‘jaligi vazirligi | 13 | 3 791,9 |
| 13 | Turizm va madaniy meros vazirligi | 5 | 52,6 |
| 14 | Adliya vazirligi | 24 | 426,1 |
| 15 | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi | 11 | 1 391,9 |
|  | Jami | 3100 | 233 890,3 |

3 O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 52(I)-son, 2013-yil 31-dekabr.
4 Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.
5 Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ichki audit xizmatlari tomonidan 2019–2022-yillar davomida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadvaldan (3-jadval) ko'rishimiz mumkin.

3-jadval: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi Ichki audit xizmatlari tomonidan 2019–2021-yillarda o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari to'g'risida ma'lumot[6]

| № | Ko'rsatkichlar | Nazorat tadbiri o'tkazilgan obyektlar soni (dona) | | | | Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar summasi | | | | Davlat byudjetiga tiklangan mablag' | | | | Profilaktika tadbirilari natijasida oldi olingan xarajatlar summasi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
| 1 | Sog'liqni saqlash vazirligi | 366 | 395 | 443 | 320 | 1,2 | 16,9 | 35,1 | 26,4 | 1,7 | 3,2 | 8,5 | 0,8 | - | 22,7 | 38,7 | 23,1 |
| 2 | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi | 465 | 328 | 524 | 200 | 0,56 | 2,5 | 16,3 | 16,1 | 1,9 | 1,1 | 6,4 | 6,3 | 8,6 | 4,7 | 5,7 | 9,1 |
| 3 | Xalq ta'limi vazirligi | 5273 | 1188 | 256 | 662 | 16,1 | 228,3 | 91,1 | 87,3 | 11,9 | 16,8 | 8,1 | 23,1 | - | 135,1 | 410,1 | 852,9 |
| 4 | Maktabgacha ta'lim vazirligi | - | 611 | 450 | 1160 | - | 51,8 | 36,6 | 45,1 | - | 7,4 | 8,9 | 10,1 | - | 3,2 | 41,3 | 8,2 |
| | JAMI | 6104 | 2522 | 1670 | 2342 | 17,9 | 299,6 | 179,3 | 174,9 | 15,5 | 28,7 | 31,9 | 40,3 | 8,6 | 165,8 | 495,9 | 893,3 |

Yuqoridagi jadvaldan ushbu vazirliklar ichki audit xizmatlarining xato va kamchiliklarni aniqlashdan tashqari profilaktikaga ham e'tibor qaratayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, buni ushbu vazirliklarda ichki audit xizmatlari faoliyatining rivojlanishi hamda uslubiy asoslarining mustahkamlanayotganligi bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, mamlakatimiz davlat sektorida ichki audit faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ–4938-son "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini tahlil qilish maqsadida vazirliklar va idoralar markaziy apparatlari tuzilmasida ichki audit xizmatlari joriy qilinishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ–73-son "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 40 ta birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning maqsadli indikatorlari tasdiqlandi hamda maqsadli indikatorlarning bajarilishini baholash vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlariga yuklatildi.

Hozirda vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit tuzilmalarida 300 dan ortiq ichki audit xizmati xodimi faoliyat yuritmoqda. (4-jadval)

4-jadval: Ayrim vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari to'g'risida ma'lumot (2022-yil)[7]

| № | Vazirlik va idora nomi | Tizimdagi tashkilotlar soni | Ichki audit xizmatlari shtat birliklari soni | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | jami | markaziy apparatda | hududda |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Xalq ta'limi vazirligi | 10 596 | 54 | 54 | 0 |
| 2 | Maktabgacha ta'lim vazirligi | 6 678 | 35 | 35 | 0 |
| 3 | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi | 560 | 63 | 4 | 59 |
| 4 | Sog'liqni saqlash vazirligi | | 31 | 3 | 28 |
| 5 | Madaniyat vazirligi | 786 | 3 | 3 | 0 |

6 Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.
7 Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Innovatsion rivojlanish vazirligi | 9 | 3 | 3 | 0 |
| 7 | Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi | 68 | 1 | 1 | 0 |
| 8 | Qishloq xo‘jaligi vazirligi | 174 | 18 | 4 | 14 |
| 9 | Suv xo‘jaligi vazirligi | 288 | 3 | 3 | 0 |
| 10 | Turizm va madaniy meros vazirligi | 25 | 2 | 2 | 0 |
| 11 | Sportni rivojlantirish vazirligi | 377 | 16 | 2 | 14 |
| 12 | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi | 272 | 17 | 17 | 0 |
| 13 | Qurilish vazirligi | 16 | 4 | 4 | |
| 14 | Adliya vazirligi | 40 | 2 | 2 | 0 |
| 15 | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi | 36 | 2 | 2 | 0 |
| 16 | Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi | 45 | 2 | 2 | 0 |
| 17 | O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi | 118 | 1 | 1 | |
| 18 | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi | 367 | 1 | 1 | 0 |
| 19 | Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi | 17 | 5 | 5 | 0 |
| 20 | Davlat statistika qo‘mitasi | 16 | 1 | 1 | 0 |
| 21 | Davlat soliq qo‘mitasi | 232 | 16 | 2 | 14 |
| 22 | Davlat bojxona qo‘mitasi | 18 | 2 | 2 | 0 |
| 23 | Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi | | 29 | 3 | 26 |
| 24 | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi | 19 | 4 | 4 | 0 |
| 25 | Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi | | 1 | 1 | |
| 26 | O‘zbekiston Milliy axborot agentligi | | 1 | 1 | |
| 27 | Prezident ta’lim muassasalari agentligi | | 4 | 4 | |
| 28 | Kinematografiya agentligi | | 1 | 1 | |
| 29 | Yoshlar ishlari agentligi | 223 | 1 | 1 | |
| 30 | O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi | | 4 | 4 | |
| 31 | Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi | 223 | 38 | 6 | 32 |
| 32 | Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi | 29 | 5 | 3 | 2 |
| 33 | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi | 1 | 3 | 3 | 0 |
| 34 | Fanlar akademiyasi | 42 | 2 | 2 | 0 |
| | Jami | 21 275 | 375 | 186 | 189 |

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilsak, ichki audit tuzilmalaridagi shtat birliklari soni vazirlik va idoralarda turlicha ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, ayrim vazirliklarda ulardagi tashkilotlar soni, xodimlar soni va tashkil etilish shaklidan kelib chiqib, shtat birliklari hududlarda ham tashkil etilgan. Bunga misol sifatida Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligini keltirishimiz mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma’lumotdan shunday xulosa qilish mumkinki, ichki audit tuzilmalarida shtat birliklari sonini belgilash bo‘yicha qonunchilikda alohida talablar mavjud emasligi sababli vazirlik va idoralarda ichki audit tuzilmalaridagi shtat birliklari nomutanosib belgilangan. Misol tariqasida 42 ta shtat birligiga ega Fanlar akademiyasida ichki audit tuzilmasiga 2 ta shtat birligi bo‘lsa, 223 ta shtat birligiga hamda hududiy tuzilmalariga ega Yoshlar ishlari agentligida ichki audit tuzilmasiga 1 ta shtat birligi belgilangan.

Shu sababli ichki audit tuzilmalarida shtat birliklari sonini belgilash bo‘yicha aniq mezonlari ishlab chiqilishi va qonunchilik hujjatlari bilan mustahkamlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda mezonlar ishlab chiqishda vazirlik va idora tizimidagi tashkilotlar va xodimlar soni, byudjeti, vazifalari va boshqalar ko‘rsatkichlar inobatga olinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida namunaviy nizomda ichki audit xizmatlari tashkil etilishi bilan bog‘liq asosiy normalar belgilab qo‘yildi. Jumladan,

a) ichki audit xizmati vazirlik va idoralar markaziy apparatida mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etiladi;

Ichki audit xizmatlarining vazirlik va idoralar markaziy apparatida mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilishi, uning o‘z faoliyatini amalga oshirishda, jumladan, ichki audit tadbirlari o‘tkazishda, natijalarni rasmiylashtirishda mustaqil faoliyat olib borishiga hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmaslikka olib keladi.

Hozirda ayrim vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalarida faoliyat yurituvchi ichki audit xizmatlari xodimlarining hududiy boshqarma rahbarlariga bo‘ysinuvi, ichki audit xizmati xodimi mustaqilligining cheklanishiga hamda o‘z faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli:

b) ichki audit xizmatini tashkil etmasdan ichki audit faoliyatini boshqa tarkibiy tuzilmalarga yuklashga yo‘l qo‘yilmaydi;

Xalqaro tajribaga ko‘ra ichki auditning xalqaro tan olingan tamoyillaridan biri mustaqillik hisoblanadi. Yuqorida keltirilganidek ichki audit xizmatlari mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilishi lozim. Ichki audit faoliyatini boshqa tarkibiy tuzilmalariga yuklanishi, ichki audit xodimlarini o‘z faoliyatlarini to‘laqonli amalga oshirishga imkon bermaslikka hamda manfaatlar to‘qnashuvining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Hozirda ayrim vazirlik va idoralarda ichki audit faoliyatining moliyalashtirish yoki komplaens bilan bog‘liq tuzilmalar tarkibida tashkil etilganlik holatlari mavjud bo‘lib, bu yuqorida keltirilgan muammolarni yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

d) ichki audit xizmati vazirlik va idoralarning asosiy faoliyati natijalariga javobgar hisoblanmaydi;

Ichki audit xizmatining asosiy maqsadi qaror bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida namunaviy nizomda belgilanganidek vazirlik va idoralarda byudjet intizomini mustahkamlash va byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, byudjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlash hisoblanadi.

Shu bilan birga ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ichki audit xizmatlari:

- “byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, byudjet hisobining yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini o‘rganish orqali byudjet intizomini mustahkamlash;
- masofaviy auditni qo‘llagan holda, byudjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash, minimallashtirish, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari profilaktikasini amalga oshirish;
- rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalarini tahlil qilish va baholash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali byudjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;
- vazirlik va idoralarni moliyalashtirish jarayoniga axborot texnologiyalari tatbiq etilishini baholash orqali ulardan foydalanish samaradorligini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi.”[8]

Ichki audit xizmati vazirlik va idora asosiy faoliyati natijalariga, jumladan, vazirlik va idoraga yuklatilgan vazifalar bajarilishiga, belgilangan maqsadli indikatorlarning bajarilishiga javobgar hisoblanmaydi yoki uning vazifasi hisoblanmaydi.

e) ichki audit xizmati bevosita vazirlik va idoraning birinchi rahbariga bo‘ysunadi.

Ichki audit xizmati faoliyatiga vazirlik va idoralarning boshqa mansabdor shaxslari, shuningdek, boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ichki audit xizmatining vazirlik va idora birinchi rahbariga bo‘ysunishi hamda uning faoliyatiga boshqa mansabdor shaxslarning aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi, ichki audit faoliyati mustaqilligini ta’minlanishiga hamda rahbarni vazirlik va idora ichki nazorat tizimi to‘g‘risida aniq va ishonchli ma’lumot taqdim etishiga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan vazirlik va idoralar tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ichki audit xizmati faoliyati natijalari yuzasidan hisobot choragidan keyingi oyning 20-sanasigacha choraklik hisobot hamda hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvariga qadar yillik hisobot taqdim etilishi belgilandi.

Ilg‘or xorij tajribasida ichki audit xizmatlari tegishli organlarga (Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi) o‘z faoliyati yuzasidan hisobot taqdim etadi hamda ushbu hisobot ichki audit xizmati faoliyati to‘g‘risida hisobot davrida qilingan ishlar, ichki audit yillik rejasining bajarilishi, ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi, ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar, ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta’minlash bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3231-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 52(I)-son, 2013-yil 31-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ–416-sonli qarori.


8 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 416-son qarori

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.